



BO'LAJAK DEFEKTOLOGLARNI KOMPITENSIYAVIY ASOSIDA TAYYORLASHNING NAZARIY ASSOSLARI

Muxtorova Maftuna

Qo'qon davlat universiteti, maxsus pedagogika kafedrası o'qituvchisi

E-mail muxtorovamaftunaxon@587gmail.com

Annotatsiya Mazkur maqolada Dunyoda bo'lajak defektologlarni kasbiy komponentligini rivojlantirish oliy ta'lim sifatini oshirishga yangi ishtimoiy ehtiyoj va zamonaviy talablarga javob beradi. Pedagogik kadrlarni tayyorlashni taqazo etmoqda xalqaro miqiyosda bo'lajak defektologlarni kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish va metodik amaliyotiniim dasturini shakillantirish muxumkasb etib maxsus ta'lim muassasini modernizatsiyalash kompetensiyalarga asaoslangan ta'lim dasturlarini joriy etish defektologlarning oila bilan ishlashga oid kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi ilg'or inovatsiyalar ishlab chiqish dolzarb muammo sifatida etirof etilmoqda.

Kalit so'zlar Bo'lajak defektologlarni noto'liq oila bolalarini ishtimoiy hayotga tayyorlash jaroyoni.

Ruscha (Аннотация)

Аннотация.

В данной статье отмечается, что развитие профессиональной компетентности будущих дефектологов в мире отвечает новым социальным потребностям и современным требованиям повышения качества высшего образования.

Подчеркивается необходимость совершенствования подготовки педагогических кадров, развития профессиональной подготовки будущих дефектологов на международном уровне и формирования программ методической практики. Важное значение приобретает модернизация учреждений специального образования, внедрение образовательных программ, основанных на компетенциях, а также разработка передовых инноваций, направленных на развитие компетентности дефектологов в работе с семьёй. Данные вопросы рассматриваются как актуальная проблема.

Ключевые слова: процесс подготовки детей из неполных семей к социальной жизни, будущие дефектологи, профессиональная компетентность, специальное образование.

English

Abstract.

This article emphasizes that the development of professional competence of future defectologists worldwide meets new social needs and modern requirements for improving the quality of higher education. It highlights the necessity of enhancing the training of pedagogical personnel, developing the professional preparation of future defectologists at the international level, and forming methodological practice programs. Special importance



is given to the modernization of special education institutions, the introduction of competency-based educational programs, and the development of advanced innovations aimed at improving defectologists' competence in working with families. These issues are recognized as urgent challenges.

Keywords: the process of preparing children from single-parent families for social life, future defectologists, professional competence, special education.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan tub islohotlar ijtimoiy sohalar qatori ta'lim tizimida ham o'z intiqosini topmoqda. Ta'limdagi islohotlar tizimni modernizasiya qilish sharoitida va davlat ichki siyosatining ustuvor vazifasi sifatida doimiy ravishda mamlakat rahbariyatining doimiy e'tiborida turibdi. Uning asosi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Vazirlar Mahkamasining qator farmon va qarorlarida mavjud muammolarni hal qilishga nisbatan kompleks yondashuv va tashkiliy jihatlar ko'rsatib berilgan.

Mamlakatimizda nogironligi bo'lgan bolalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishining yangi tizimi yaratilgan bo'lib, uni joriy etish bo'yicha islohotlar amalga oshirilmoqda "nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyat ijtimoiy iqtisodiy hayotiga jalb qilinishi va faol ishtirokini ta'minlovchi inklyuziv ta'lim va ishga joylashtirish tizimini takomillashtirish" bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu maqsadda imkoniyati cheklangan bolalarni oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligida to'laqonli hayotga moslashtirishning Mamlakatimizda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan tub islohotlar ijtimoiy sohalar qatori ta'lim tizimida ham o'z intiqosini topmoqda. Ta'limdagi islohotlar tizimni modernizasiya qilish sharoitida va davlat ichki siyosatining ustuvor vazifasi sifatida doimiy ravishda mamlakat rahbariyatining doimiy e'tiborida turibdi. Uning asosi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Vazirlar Mahkamasining qator farmon va qarorlarida mavjud muammolarni hal qilishga nisbatan kompleks yondashuv va tashkiliy jihatlar ko'rsatib berilgan.

Mamlakatimizda nogironligi bo'lgan bolalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishining yangi tizimi yaratilgan bo'lib, uni joriy etish bo'yicha islohotlar amalga oshirilmoqda "nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyat ijtimoiy iqtisodiy hayotiga jalb qilinishi va faol ishtirokini ta'minlovchi inklyuziv ta'lim va ishga joylashtirish tizimini takomillashtirish" bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu maqsadda imkoniyati cheklangan bolalarni oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligida to'laqonli hayotga moslashtirishning

Kompetenlikka yo'naltirilgan kasbiy ta'lim – bu ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ta'limiy va pedagogik shartlar asosida vujudga kelgan ta'limdagi ob'yektiv hodisadir: kasbiy ta'limning tez o'zgarayotgan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga, bozor iqtisodiyoti bilan birga paydo bo'layotgan jarayonlarga, hayotiy vaziyatlarga moslashuvchan munosabati, reaksiyasidir. Chunki bozor munosabatlari sharoitida zamonaviy mutaxassisga qo'yilayotgan talablar birmuncha o'zgarmiqda. Mazkur o'zgarishlar bugungi kunda mutaxassislarni tayyorlash





dastur va rejalarida yetarli darajada hisobga olinmagan. Ushbu yangi talablar u yoki bu fan bilan qat'iy bog'liq emas, ular sub'yektiv xususiyatga ega va o'zining universalligi bilan ajralib turadi. Ularning shakllanishi yangicha mazmunni talab qilmaydi, balki boshqa pedagogik texnologiyalardan foydalanishni taqozo qiladi.

Ijtimoiylashuv va moslashuv o'zaro chambarchas bog'liq jarayon bo'lib, shaxsning oila, mahalla, keng jamoatchilik bilan o'zaro munosabatlarining yakdilligini o'zida namoyon etadi. Lotin tilidan tarjima qilingan "adaptasiya" atamasi "moslashtirish", "sozlash" degan ma'noni anglatadi. Ushbu atama asli biologiya faniga taalluqli bo'lib, organizmning evolyusiya jarayonida tashqi sharoitga, morfofiziologik va xulq-atvor mezonlarga moslashtirishni anglatgan. Bizning nazarimizda, moslashish – bu hayotning, atrof-muhitning o'ziga xos xususiyatlariga o'zini o'zi moslashtirish orqali oldiga maqsad qo'yish, iqtidor va qobiliyatlarini namoyon etish demak.

Boshqacha qilib aytganda, muhitning o'ziga xos xususiyatlarini qabul qilish orqali unga moslashish sifatida ham tushunishimiz mumkin, ya'ni inson yashayotgan jamiyatga, taraqqiyotga adaptasiya qilish jarayonidir.

"Ijtimoiy moslashuv (lot. Socialis – ijtimoiylashgan) shaxs tomonidan muayyan madaniyat an'analariga xos bo'lgan faoliyat va xulq-atvor me'yorini o'zlashtirish, qadriyatlar va tartib-qoidalarini anglash jarayonidir".

Odatda, ijtimoiylashuv shaxsning umumiy rivojlanishi bilan, moslashuv esa maqbul ijtimoiy muhit, shart-sharoit, o'zaro muloqot va maqsadli faoliyat bilan belgilanadi.

Ijtimoiy moslashuv individning shaxsga aylanish jarayoni ostida kechuvchi qayta aloqaning sifati bilan bog'liq tushuncha hisoblanadi. Shaxs hayoti davomida o'z ehtiyojlarini qondirishi, o'zi va o'zgalar manfaatlarini ko'zlagan holda ma'lum harakatlarni amalga oshirishi uning boshqa insonlar bilan o'zaro muloqoti orqali yuzaga keladi. Ijtimoiy moslashuv shaxslararo munosabat uchun maqbul muhit vujudga kelganda amalga oshadi. Agar maqbul muhit yaratilmasa, shaxslararo munosabat o'zaro bir-birining yoshi, qiziqishi, dunyoqarashi, hayotga munosabati nuqtai nazardan psixologik tushunish, anglash tarzida namoyon bo'lmasa, ijtimoiy moslashish jarayoni samarali kechmaydi.

Ijtimoiy moslashuv turli munosabatlar sharoitida amalga oshadi. Shaxsning moslashganlik darajasi ijtimoiy muhit xususiyatlari va insonning shaxsiy sifatleri bilan ifodalanadi. Ma'lumki, ijtimoiylashuv jarayonining asosi insonning muhitga moslashuvidan iborat bo'lib, uning ta'sirida shaxs jamiyatning teng huquqli a'zosiga, turli munosabatlarning faol ishtirokchisiga aylanadi. Insonning ijtimoiy moslashuvi jamiyatdagi munosabatlar bilan bog'liq ravishda o'zgarib boradi va unda jamiyat talablariga javob berish darajasi ortib boradi. Insonning hayot yo'li shaxs ijtimoiylashuvining quyidagi yo'nalishlari zahirida kechadi: faoliyat, muloqot va o'z-o'zini anglash.





Yuksak bilim va bilimdonlik, kasbiy shakllanish, hayotda o'z o'rnini topish qadimdan Sharq mutafakkirlarini qiziqtirib kelgan. Bilimlar xazinasining boshida butun dunyoga nomlari ma'lum bo'lgan buyuk ajdodlarimiz turgan, deyish asoslar yetarli. Ular qatorida matematik va astronom olimlar: al-Xorazmiy, al-Farg'oniy, Javhariy, Marvoziy, Mirzo Ulug'bek; faylasuf va huquqshunos olimlar: Abu Nasr Forobiy, al-Buxoriy, at-Termiziy, Marg'iloniy, Nasafiy; qomusiy olimlar: Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino; tilshunos olim va adiblar: Mahmud Qashqariy, Yusuf Xos Hojib, az-Zamaxshariy, Mir Alisher Navoiy; tarixchi va shoirlar: Zahiriddin Muhammad Bobur, Abulg'ozir Baxodirxon, Ogohiy va boshqalarni keltirish mumkin.

Quyida Sharq mutafakkirlarining umumiy pedagogik qarashlari tadrijini ko'rib o'tamiz.

O'rta asr Sharq mutafakkirlari o'z asarlarini, umumiy holatda, shaxsning barkamol va uyg'un rivojlanishi dasturini ishlab chiqishga bag'ishlaganlar. Ularning o'zlari shunday uyg'unlikning mezonlari bo'lib, jaholat va axloqsizlikni qoralaganlar.

Faylasuf olim al-Forobiy (870-950) o'z davrining ilmiy doirasida katta hurmatga sazovor bo'lgan, muhim pedagogik muammolarni oldindan ko'ra bilgan mutafakkirdir. Klerikalizm (mamlakat siyosiy va madaniy hayotida dinning ta'sirini kuchaytirishga qaratilgan oqim) g'oyalariga qarshi o'laroq, ezgulik (baxt-saodat)ning mavjud olamdan tashqarida ekanligiga aqldan ozganlarga ishonishlari mumkin, deb ta'kidlagan olim. Forobiyning fikriga ko'ra, tarbiyaning maqsadi yaxshilik qilish istagini rag'batlantirish orqali insonni shu yaxshilikka yetkazishdir. Nima yaxshi-yu, nima yomon ekanligini tushunishga faqat bilim yordam beradi. Forobiy yaxshi fazilatlarni tarbiyalash usullari tizimini taklif qildi. Uning qarashlarida tarbiya usullari "qattiq" va "yumshoq"ga bo'lingan. Agar tarbiyalanuvchi o'qishga, ishlashga va yaxshi ishlar qilishga tayyor bo'lsa, unga yumshoq usullar mos keladi. Agar tarbiyalanuvchi jahldor, battol, darg'azab, beparvo, yolg'onchi bo'lsa, unga nisbatan "qattiq" usulni qo'llash lozim, deb uqtiradi.

Buyuk Sharq mutafakkirlaridan yana biri al-Beruniy (970-1048) bo'lib, uning bir yuz ellikdan ziyod asarlarida uning pedagogik g'oyalari o'z ifodasini topgan. Jumladan, olim pedagogikada tizimlilik va ko'rgazmalilikni, ta'limning bilishga (anglashga) asoslanishini yoqlaydi. Beruniyning fikricha, tarbiyaning bosh maqsadi bu axloqiy poklanishdir.

Zamondoshlari tomonidan "ilmlar hokimi (sultoni)" deb nomlangan, Yaqin va O'rta Sharqdagi turli mamlakatlar hukmdorlarining maslahatchisi Abu Ali ibn Sino (980-1037) hayotining ko'p yillarini o'qituvchilikka bag'ishlagan va pedagogik nazariya bilan bevosita aloqasi bo'lgan ko'plab asarlar qoldirgan. Uning qalamiga mansub "Shifo kitobi"ning tarkibiy qismi sifatida qaraladigan "Qalb kitobi", "Bilimlar kitobi", "Ko'rsatmalar va ko'rgazmalar kitobi"da olimning pedagogik qarashlari bayon qilingan.

Ibn Sino ko'p qirrali ta'lim va tarbiyani targ'ib qilgan va pedagogikani musiqa, she'riyat, falsafa bilan uyg'unlikda ko'radi. Uning fikricha, tarbiyalanuvchilarning birgalikdagi o'qishi ta'lim olishda raqobat muhitini paydo qiladi va ta'lim oluvchilarda motivasiyani kuchaytirishga ko'maklashadi. Olimning fikricha, hamkorlikda o'qitish





o'quvchilarning qobiliyatiga mos ravishda har xil darajada amalga oshirilishi kerak. Ibn Sino o'qish va yozishni o'zlashtirishga nisbatan barcha ta'limning fundamental asosi sifatida qaraydi. Uning fikriga ko'ra, umumiy rivojlanish kasbiy ta'limdan oldin berilishi kerak. O'smir savodxonlikni o'zlashtirishi bilanoq u kelgusi kasbga tayyorlanishi kerak (masalan, unga hisobot va boshqa hujjatlarni tuzishni o'rgatish). Shundan keyingina kasbiy faoliyatga kirishishi va pul ishlab topishi kerak.

Sharq faylasufi Nasiraddin Tusiy (1202-1273) ham ta'lim-tarbiya borasida ilg'or g'oyalari bilan ajralib turadi. Mutafakkirning 150 dan ortiq asarlari mavjud bo'lib, "Donolikni o'rgatish", "Hikmatlar kitobi", "Tarbiyalanuvchilar tarbiyasi to'g'risida", "Tarbiyalanuvchiga o'qish yo'lida ko'rsatma berish" kabi asarlarida uning pedagogik qarashlari ifodalangan. Olimning pedagogik qarashlari tizimida aqliy, estetik va jismoniy tarbiya uyg'unligiga erishish bosh g'oya sifatida qoraladi. Tusiyning obrazli fikricha, bilim inson uchun hayoti davomida foydalaniladigan dori sifatida xizmat qiladi. Bunday dorini olish uchun esa, bilimga erishish maqsad va usulini aniq anglash kerak.

Uyg'onish davri Sharq mutafakkirlari "kompetensiya" tushunchasidan foydalanmagan bo'lsalar-da, ammo kompetentli, yuksak axloqli va malakali o'qituvchining shaxsiyati to'g'risida o'zlarining g'oya va qarashlariga ega edilar. Shaxs kompetentligi borasidagi zamonaviy tushunchaning talqini Ibn Sinoning ayrim tavsiyalarida ko'zga tashlanadi. Mutafakkirning fikricha, bilimli, oliyanob, saxovatli, oqil, irodali bo'lish, jamiyat va insonlar foydasi uchun faol ishlash insonning shaxs sifatida shakllanishidagi kompleks fazilatlar sanaladi.

Forobiyning fikricha, o'qituvchi o'quvchilarga bo'lgan munosabatida bir tekis va xotirjam bo'lishi, talabalar bilan ishlashda ham, o'zini o'zi tarbiyalashda ham tirishqoq va qat'iyatli bo'lishi kerak; uning fikrlari va harakatlari chiroyli va foydali bo'lishi lozim.

Buyuk mutafakkirlarning nazariya va amaliyot o'rtasidagi munosabatlar muammosiga oid qarashlari ham muhimdir. Tabiiyki, azaliy tushuncha sifatida bu hanuzgacha "kompetensiya" va "kompetentlik" kabi zamonaviy tushunchalar o'rtasidagi aloqaning asosi hisoblanadi. Qomusiy olimlar "ilm ilm uchun" nazariyasini yakdillik bilan qoralaganlar: ularni, birinchi navbatda, ilmiy izlanishlar va kashfiyotlarni amalga qo'llash qiziqtirar edi.

Abu Nasr Forobiy mutaxassis tayyorgarligida tajriba katta ahamiyatga ega ekanligini qayd etadi. Uning fikricha, "Aql tajribadan boshqa narsa emas". Olim ta'lim va tarbiya bo'yicha o'z konsepsiyasidan kelib chiqib, har qanday fanni ikki qismga - nazariy va amaliy qismlarga ajratdi.

U ilmiy bilimlarni hayotiy amaliyot bilan bog'liq holda, mashg'ulotning amaliy yo'nalishi, o'zaro bog'liqligi bilan ochib berdi.

Yana bir Sharq mutafakkiri, shoir, matematik va faylasuf Umar Hayyomning asarlarida - xususan, uning "Yevklid kitobining kirishidagi qiyinchiliklar to'g'risida mulohazalar" risolasida o'quvchilar tomonidan bilim, ko'nikma va malakalarni to'liq, chuqur va mazmunli o'zlashtirish usullari, ularni mustaqil ravishda bilim olishga tayyorlash haqida ko'plab fikrlar mavjud. Olimning fikricha, o'rganish jarayonida bilim nafaqat





o'qituvchining xabarlari va kitoblaridan, balki hayotiy hodisalarni o'rganish jarayonida, shuningdek, ko'nikma va malakalarni amaliyot natijasida, xuddi shu harakatlarni ko'p marotaba takrorlash orqali o'zlashtirib oladilar.

Bugungi kunda kompetentlikka asoslangan yondashuv o'sha Sharq mutafakkirlarining qarashlariga asoslanadi va uni amalga oshirish kasbiy tayyorgarlikni yaxshilashga yordam beradi. Zamonaviy ta'limda mustaqil hayotga qadam qo'yadigan shaxs uchun kompetentlik bilan bog'liq quyidagi qobiliyatlar bo'lishi maqsadga muvofiq:

- guruhda ishlashda guruh ichidagi va guruhlararo raqobatbardoshlikka tayyor bo'lish;
- o'zining shaxsiy manfaatlarini guruh manfaatlari bilan uyg'unlashtirish qobiliyati;
- cheklangan vaqt sharoitida tashqi bosim ostida qaror qabul qila bilish qobiliyati;
- qarorlarini amalga oshirish natijalari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga ola bilish qobiliyati.

Zamonaviy ijtimoiy-madaniy sharoitlarda erkin harakatlanadigan, ilm-fan va ishlab chiqarishning tez o'zgarib turadigan sharoitlarida mas'uliyatli va professional tarzda harakat qila oladigan kompetentli mutaxassisni tayyorlash, zamonaviy oliy kasbiy ta'limning mohiyati hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Tutxodjaeva K.A. Maxsus psixologiya. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. - 248 b.
2. Ермаков В.П., Якунин Г.А. Основы тифлопедагогики: развитие, обучение и воспитание детей с нарушениями зрения. - М.: ВЛАДОС, 2000. - 240 с.
4. Soliyev O.A. Tiflopsixologiya asoslari. - Qarshi: Nasaf, 2018. - 226 b.
5. Григорьева Л.П., Сташевский С.В. Основные методы развития зрительного восприятия у детей с нарушением зрения. - М.: АПН СССР, 1990. - 184 с.
6. Феоктистова В.А. Развитие навыков общения у слабовидящих детей. - СПб.: Речь, 2005. - 128 с.
7. Nazarova M.A. Ko'rish qobiliyati buzilgan bolalar ta'limi metodikasi. - Toshkent: Fan, 2019. - 196 b.